



# **PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI**

**Respublika ilmiy-amaliy  
anjumani materiallari  
(2021 yil 17 may)**

**2021-yil**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Abdulla Qodiriy nomidagi  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI**

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari  
(2021 yil 17 may)**

Tebratish – logopedning qo'l harakati tebranishini bolaning uqalanayotgan terisiga yetkazib berish.

Tebranish ikki turda bo'ladi.

- Navbatma-navbat – teri ustidan qo'lni birin-ketin olib bajariladi (chimchilash, taqillatish). U mushaklarni rag'batlantiradi.

- Uzluksiz tebratish qo'llarni teridan olmay bajariladi. Bu holat bolaning mushaklarini bo'shashtiradi.

Logopedik massaj bosh, bo'yin shu bilan birga tepa yelka mushaklaridagi qismlarda bajariladi. Logopedik massaj vaqtida pereferik nutq apparatidagi mushaklarga alohida diqqatni jalg qilinadi, ya'ni til lab, yuz, yumshoq tanglay mushaklarga e'tibor qaratiladi. Logoped logopedik massaj qiladigan qismini, mushaklarni funktsiyasini, joylashishni yaxshi tasavvur qila olishi lozim. So'nggi o'n yilliklarda massajga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Massaj - inson tanasiga jismoniy va energiya ta'sir qilish usullaridan biri u - tinchlantiradi, og'riqni yengillashtiradi, kasallikni yengishga yordam beradi va hatto bolalarning aqliy, nutqiy va jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shami.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'lim mussasalariga tadbiq etish .*Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(92). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6711](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6711)

2. Temurova, G. (2020). MAKTABGACHA YoSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING UMUMIY MOTORIKASINI RIVOJLANTIRISH. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(91). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6843](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6843)

3. Temurova, G. (2020). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI SOG'LOMLASHTIRISHDA JISMONIY MASHQLARNING AHAMIYATI. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(91). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6844](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6844)

## **TA'LIM – TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI**

**Xayitgul Muzaffarova-JDPI o`qituvchisi  
R'ano Lapasova-Defektologiya yo`nalishi talabasi**

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Prezidentimiz SH.Mirziyoev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. SHu sababli tizimdagи pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lrim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham

dolzarb sanaladi. Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta’lim muassasalarini uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o’quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir.

Bir so’z bilan aytganda, Prezidentimizning “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo’lib ulg’ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asridir. Bu asrda har bir o’qituvchi axborot texnologiya savodxonligiga ega bo’lishi, davr texnikasi va uning ishslash texnologiyasidan xabardor bo’lishi, o’qitish jarayoniga texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llay olishi talab etiladi. Bu esa o’z navbatida dars samaradorligini oshirishga, o’qish-o’qitish sifatini ta’minlashga xizmat qiluvchi didaktik hodisa hisoblanadi. Bundan tashqari kompyuter, yordamida olingan ma’lumotlar mashg’ulot mazmunini boyitish bilan birga o’qituvchining ilmiy-nazariy saviyasini oshirishga, savodxonligini ko’tarishga yordam beradi, fanlararo integratsiya yo’lga qo’yiladi, o’quv topshiriqlarining amaliy yo’nalishi kuchaytiriladi, o’qituvchining pedagogik mahorati takomillashadi.

O’qituvchi ta’lim muassasasidagi ta’lim va tarbiyaviy jarayonning asosiy tashkilotchisidir. Ta’lim-tarbiya jarayoni har bir o’qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-toqat, matonat, o’quvchilarga va o’z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo’lishini talab etadi.

O’qituvchi pedagogik mahoratga ega bo’lishi uchun quyidagilarga ega bo’lishi lozim:

- o’qituvchilik kasbiga sadoqatlilik;
- o’z fanining o’qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarga ega bo’lishi va namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani o’z o’rnida qo’llay bilishi.

Axborot texnologiyalari haqidagi ma’lumotlarni berish uchun pedagog quyidagilarga alohida e’tibor qaratishi lozim:

- kasbini sevishi, o’z kasbiga sadoqat bilan yondashishi;
- shaxsiy fazilatlarga ega bo’lishi;
- dars maqsadlarini to’g’ri tanlay olishi;
- darsda metodlarni to’g’ri tanlashi va qo’llay olishi;
- nutqining ravon bo’lishi;
- fanga oid yangiliklarni o’rganib borishi.
- axborot texnologiyalarni o’zi bilishi, qo’llay olishi zarur.

O’qituvchining pedagogik mahorati samarali bo’lishi uchun quyidagi qobiliyatlarga ega bo’lishi lozim: bilim, bolani tushuna olishi, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko’ra bilish, diqqatni taqsimlash va bir joyga to’plash, vaziyatni to’g’ri baholay olish, yuzaga kelish mumkin bo’lgan ziddiyatlarni sezish va ularning oldini olish, o’quvchilarni bilish qobiliyatlarini o’stirishi va bilim olishga qiziqtira olishi kerak. O’qituvchining pedagogik mahorati haqida buyuk nemis pedagogik olimi Adolf Disterverg shunday ta’riflaydi: “O’qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug’ullanmog’i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o’xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o’qituvchidan hech qanday natija kutib bo’lmaydi”. Pedagogik mahorat egasi bo’lish uchun o’qituvchi o’zida ilg’orlikni, novatorlikni, yangiliklarni egallashni, ijodkorlikni tarbiyalashi lozim. Har bir darsni “quyosh”ga tasvirlab, ijod etgan holda tashkil etishi lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqiclarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lif sifati va samaradorligini ortishi o'quvchilarning bilish faoliyati oshadi, fanlararo aloqalarini chuqurlashganini kuzatish mumkin. Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lif sifati va samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash,
- o'z-o'zini nazorat qilish
- o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil o'zlashtirishni tashkil etish

- o'quv vaqtini tejash
- o'quv axborotlarini kompiyuter orqali vizuallashtirish
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni moderlashtirish
- kompyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish
- o'qishga qiziqishni orttirish
- optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish
- o'quvchida axborot madaniyatini shakllantirishni kiritish mumkin

Axborot texnologiyalari, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion taxnologiyalarni dars jarayonida va darsdan tashqarida qo'llash dars samarasini yanada oshiradi. Zamonaviy o'qituvchi ta'lif – tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar:

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lif maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash prinsiplarini bilishi;
- ta'limiylar va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lif metodlarini bilishi;
- o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;
- o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, na'munaviy imitatsiya o'quv mashg'ulotlarini o'tishi;

uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalana olishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'lif mussasalariga tadbiq etish .*Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(92). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6711](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6711)
2. Muzaffarova, X. (2020). THE CORRECTIVE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES.*Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(94). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/2537](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2537)
3. Akramova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ ЎҚУВЧИЛАРНИ КОМПҮОТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА МЕХНАТ КҮНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Arxiv Научных Публикаций JSPI*, 1(16), 1-9. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4013](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013)
4. Akramova, X. (2020). МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩИХ ТРУДОВЫХ НАВЫКОВ У УМСТВЕННО ОТСТАЛЫХ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ КОМПЬОТЕРНЫЕ

## **TALABALARDA MUSIQIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHGA YO`NALTIRILGAN KOMPYUTYER DASTURLARIDAN FOYDALANISH**

**Maxammatov A – JDPI katta o'qituvchi,  
Abduraxmonova Maftuna - talaba.**

Musiqa va tyexnika intyegratsiyasi bu zamon talabi musiqa darslarida kompyutyerni qo'llanilishi, shu fanga bo`lgan qiziqishni orttiradi va musiqa eshtitish qobiliyatini shakllantiradi. Kompyuter yordamida musiqani ijro etish bilimlarini shakllanitirish ba'zi bir qiyinchiliklarni tug`diradi. Bu muammoni yechimini topish uchun o`qituvchidan ijro etish uslubi, tyembr, ritm davomiyligi va boshqalarga e'tibor qaratishni talab etadi. Shu bilan birga musiqa jismoniy va tovush xususiyatlari nazariyasini rivojlantirish va uni kompyuter yordamida ijro etish uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ilm-fan taraqqiyoti bizga tabiat hodisalari va jamiyatni rivojlanish qonuniyatlarini o`rganishga imkon beradi, buning natijasida inson tabiat bilan faol munosabatga kirishib, o`z hayotiy sharoitini yaxshilaydi. Musiqa va tyexnining bir - biri bilan bog`liqligi tyexnika va musiqa oldida yangi vazifalarni qo`yadi.

Kompyuterda o`quvchilarning hohlagan musiqalarini tinglashlari ular qobiliyatlarini, fikrlash doirasini rivojlantiradi. O`qituvchi, imkon qadar, kompyuter yordamida musiqiy asarlarni tizimlashtirish lozim. Buning uchun turli notalar davomiyligini aks ettiruvchi algoritm ishlab chiqildi. U quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi:

- I. bosqich: raqam orqali musiqa notalarini davomiyligini aks ettirish.
  - II. bosqich: turli tizim va harflar orqali notalar nomini aks ettirish.
  - III. bosqich: raqamlar orqali musiqa tyezligini aks ettirish.
  - IV.bosqich: harflar sistyemasi orqali musiqada uchraydigan altyeratsion byelgilarni aks etilishi.
  - V. bosqich: tyez sur'atda ijro etiladigan 16 notalarni raqamlar orqali aks ettirilishi.
  - VI. bosqich: musiqada uchraydigan oktavani raqamlar orqali aks etirish.
  - VII. bosqich: musiqiy asar qushig`i (ryepriza) uchun algoritmlar ishlab chiqish.
  - VIII. bosqich: kompyuter sistemasini asoslash.
  - IX. bosqich: kompyuter sistemasini joriy etish uchun ishchi dasturlarni ishlab chiqish.
  - X. bosqich: kompyuter sistemasi yordamida musiqa ijro etish.
  - XI. bosqich: kompyuterda musiqa ijro etish darajasini tahlili.
- Boshlangich sinf musiqa o`qituvchilarini tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida, ishlab chiqilgan kompyuter sistemasini o`z ichiga kuyidagi kuylarni oladi:
- F.Nazarovni “Paxtaoy”, “Tyeplovoz” musiqalari;
  - N.Nasimovni “Tinchlik bogi”, “Bizdan sizga kim kyerak” musiqalari;
  - S.Abramovni “Paravoz”, “Ari” qo’shigi, “Onajon”, “Soatim” musiqalari.
  - U.Tojibekovni “Oqshomda” musiqasi.
  - G.Kodirovni “Baxor” qo’shigi, “Binafsha”, “May” musiqalari.
  - O’zbyek xalk kuyi “Yallama yorim”.
  - O’zbyek xalk kuyi “Do’lana”.